

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**GOIPOV AKRAM BAYRAMOVICH**

**JANUBIY TYAN-SHAN QIZILQUM-NUROTA SEGMENTIDA OLTIN  
MA’DANLI KONLARNI BASHORATLASH-IZLASHNING  
GEOLOGIK-GEOFIZIK MODELLARI**

**04.00.06 – Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari**

**geologiya-mineralogiya fanlari  
doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Fan doktori dissertasiyasi avtoreferati mundarijasi (DSc)**  
**Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)**  
**Content of the abstract of dissertation doctor of science (DSc)**

**Goipov Akram Bayramovich**

Janubiy Tyan-Shan Qizilqum-Nurota segmentida oltin ma'danli konlarni  
bashoratlash-izlashning geologik-geofizik modellari.....3

**Гоипов Акрам Байрамович**

Геолого-геофизические прогнозно-поисковые модели золоторудных  
месторождений Кызылкумо-Нуратинского сегмента Южного Тянь-Шаня....27

**Goipov Akram Bayramovich**

Geological and geophysical forecast and exploration models of gold deposits of the  
Kyzylkum-Nurata segment of the Southern Tien Shan.....51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works.....54

**SEYSMOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**GOIPOV AKRAM BAYRAMOVICH**

**JANUBIY TYAN-SHAN QIZILQUM-NUROTA SEGMENTIDA OLTIN  
MA’DANLI KONLARNI BASHORATLASH-IZLASHNING  
GEOLOGIK-GEOFIZIK MODELLARI**

**04.00.06 – Geofizika. Foydali qazilmalarni qidirishning geofizik usullari**

**geologiya-mineralogiya fanlari  
doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent-2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.DSc/GM64 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.seismos.uz](http://www.seismos.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy maslahatchi:**

**Atabayev Dilshot Xusainbayevich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Radjabov Shuxrat Sayfullayevich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

**Mirkamalov Rustam Xamzaevich**  
geologiya-mineralogiya fanlari doktori

**Vladov Mixail Lvovich**  
fizika-matematika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Seysmologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019.GM/FM.97.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «5» sentyabr soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70; +99871 241-74-98; E-mail: [seismologiya@mail.ru](mailto:seismologiya@mail.ru)).

Dissertatsiya bilan Seysmologiya institutining Axborot-resurslar markazida tanishish mumkin (1158-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100128, Toshkent shahri, Zulfiyaxonim ko'chasi, 3-uy; Tel.: +99871 241-51-70.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «18» avgust kuni tarqatildi.  
(2025 yil «18» avgustdagi 17-raqamli reestr bayonnomasi)



**S.X. Maksudov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash raisi,  
f.-m.f.d., professor

**Z.F. Shukurov**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
g.-m.f. bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**A.I. Tuychiev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
Ilmiy kengash qoshidagi  
Ilmiy seminar raisi, f.-m.f.d.

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Tadqiqotning dolzarbligi va zarurati.** Dunyoning ko‘plab davlatlarida oson qazib olinadigan foydali qazilmalar zaxirasi tugayotganligi munosabati bilan geologiya-qidiruv ishlarini olib borishda asosiy e’tibor chuqurlikdagi yashirin foydali qazilmalarni qidirib topishda istiqbolli maydonlarni va ulardagi geologik-strukturaviy birliklarning tabiatini kompleks tahlil qilish zaruratini taqozo etadi. Bu borada yangi oltin konlarini topishda ma’danlashuvini bashoratlash va izlashning geologik-geofizik modellarni ishlab chiqish, geofizik va geokimyoviy maydon ma’lumotlarini modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda yopiq maydonlarda joylashgan oltin ma’danli konlarni bashoratlash va izlash ishlarida 3D geofizik modellashtirish asosida oltin ma’danlashuvi bilan bog‘liq bo‘lgan qamrovchi muhitdagi ikkilamchi o‘zgarishlarni kompleks tadqiq qilish usullarini ishlab chiqishga qaratilgan ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, yuqori aniqlikdagi o‘lchov asboblari va dasturiy ta’minotlar yordamida olingan ma’lumotlar asosida yer qobig‘ini 3D modellashtirish orqali oltin ma’danlashuviga istiqbolli zonalarini aniqlash, geologik bashoratlash va qidiruv ishlari samaradorligini oshirib, mineral xomashyo bazasini kengaytirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizning oltin ma’danlashuviga istiqbolli turli mintaqalaridagi ochiq va yopiq maydonlarida geofizik va geokimyoviy, geologik qidiruv ishlari olib borilib, ular asosida oltin ma’danli obyektlarining geologik modellari yaratilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmonida, jumladan “Iqtisodiyot uchun zarur mineral xomashyo bazasini kengaytirish, ... geologiya sohasini istiqbolli rivojlantirish hamda olib borilayotgan geologiya-qidiruv ishlarini yanada jadallashtirishga qaratilgan maqsadli dastur doirasida yillik mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash dasturini ishlab chiqish”<sup>1</sup>, vazifalari belgilab berilgan. Bu borada, Janubiy Tyan-Shan Qizilqum-Nurota segmentida oltin ma’danli konlarni bashoratlash-izlashning geologik-geofizik modellarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-iyuldagi “Yer qa’rini geologik jihatdan o‘rganishni yanada takomillashtirish va 2020-2021 -yillarda mineral xomashyo bazasini rivojlantirish va qayta tiklash davlat dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4401-sonli Qarori, 2023-yil 27-iyuldagi “Ma’muriy islohotlar doirasida Tog‘-kon sanoati va geologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-116 son va 2023 yil 11 sentyabrdagi “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-sonli Farmonlari, hamda sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning VIII - «Yer haqidagi fanlar» (geologiya, geofizika, seysmologiya va mineral-xomashyolarni qayta ishlash) ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi<sup>2</sup>.**

Oltin ma‘danlashuvini bashorlash va izlashning geologik va geofizik modellarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy izlanishlar yetakchi ilmiy markazlarda, jumladan: International Gravimetric Bureau (Fransiya), World Data Centre for Geomagnetism, Edinburgh, British Geological Survey (Buyuk Britaniya), Geofizik tadqiqotchilar jamiyati (SEG), Alberta universiteti, Toronto universiteti (Kanada), Geoscience Australia (Avstraliya), Centre for Russian and Central EuroAsian Mineral Studies (CERCAMS), Sankt-Peterburg davlat universiteti (Rossiya), hamda Mineral resurslar instituti DM, H.M. Abdullayev nomidagi Geologiya va geofizika instituti DMlarida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Burmalangan kamarlarda joylashgan metallogenik mintaqalarda oltin ma‘danli konlarni bashoratlash-izlashning geologik-geofizik modellarini ishlab chiqish asosida istiqbolli maydonlarni aniqlash va ularni chuqurlikda baholash uchun uch o‘lchamli geologik va geofizik modellarini yaratish asosida olib borilgan tadqiqotlar natijasida yashirin ma‘danlashuvni aniqlash bo‘yicha muhim ilmiy natijalar olingan, jumladan: oltin konlarining geologik petrofizik ma‘lumotlar asosida gravitatsion, magnit va aeroelektromagnit usullar yordamida ma‘dan maydonida 1500 m chuqurlikda anomaliya zonasi aniqlanib, oltin konining geologik-geofizik modeli yaratilgan (Xitoy Fanlar Akademiyasi Geologiya va geofizika instituti); Elektrotomografiya usulida o‘lchangan fizik parametrlar bo‘yicha 2D va 3D - inversiya modellarining interpolyatsiyasi natijalari oltin konining kontur chegaralarini aniqlanib, minerallashuvning morfologik tuzilishini modellashtirilgan (UNESP, San-Paulu, Braziliya); Rossiya hududida yashirin oltin ma‘danlashuv zonalarini aniqlash uslubiyoti ishlab chiqilgan (ФГБУ «ВИМС»); O‘zbekiston hududi litosfera tuzulishida ma‘danli regionlarning o‘ziga xosligi aniqlangan. Qizilqum markaziy qismining ma‘dan-magmatik kontsentrlarini chuqur petrologik va geofizik modellari ishlab chiqilgan (Geologiya va geofizika instituti DM, O‘zbekiston). Tyan-Shan orogen strukturalari uchun moxo va konsolidatsiyalangan yer qobig‘i yuzasining tuzulishi aniqlangan (O‘zbekiston milliy universiteti).

Dunyoda oltin konlarini geologik-geofizik bashoratlash – qidiruv modellarini ishlab chiqish va ulardan oltin konlarini qidirishda foydalanish bo‘yicha quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan: oltin ma‘danli konlarning tektonik tuzilmalarini blokli modellashtirish, ma‘dan salohiyatini bashorat uchun geokimyoviy va geofizik ma‘lumotlar asosida oltin konlarining uch o‘lchamli modellarini yaratish, ma‘danlashuv bilan aloqador bo‘lgan strukturaviy birliklarni geofizik tabiatni tahlil qilish qidiruv bashoratlash mezonlarini ishlab chiqish.

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha chet el ilmiy tadqiqotlarini ko‘rib chiqish quyidagilarga asoslanadi. <https://www.scopus.com/>, <http://www.elsevier.com>, <https://portal.ifz.ru>, <https://www.lithosphere.ru/>, [www.usgs.com](http://www.usgs.com), <http://www.ingeo.uz> va boshqa manbalar.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Janubiy Tyan-Shan Qizilqum-Nurota segmentida yer po'stining chuqur geologik tuzulishi, tektonikasi, magmatizmi, geodinamikasi, geofizik maydonlari, geokimyoviy xususiyatlari va ularning oltin ma'danlashuvi bilan aloqadorligini o'rganishga H.M. Abdullayev, I.H. Hamrabayev, A.K. Buxarin, X.A. Akbarov, D.X. Yakubov, M.A. Axmedjanov, B.B. Tal-Virskiy, A.I. Fuzaylov, F.X. Zunnunov, Y.M. Butovskaya, O.P. Mordvinsev, I.G. Kreyemnev, D.X. Atabayev M.T. Xon, I.M. Golovanov, E.A. Dunin-Barkovskaya, Z.A. Yudalevich, I.V. Korolyova, Yu.S. Savchuk, S.M. Koloskova, V.D. Soy, M.M. Pirnazarov, V.S. Burtman, Yu.S. Biske, R.X. Mirkamalov va boshqa tadqiqotchilar katta hissa qo'shishgan.

So'nggi yillarda ma'danli foydali qazilmalarga sanoat talabi miqdorining o'zgarishi bilan uni o'zlashtirish chuqurligi ham ortib bormoqda. Yirik oltin ma'dan konlari joylashgan Tyan-Shan orogen kamarida joylashgan dunyo klassidagi o'ta yirik oltin konlarining geologik-geofizik, geokimyoviy modellarini yaratish misolida Muruntov koni hududida SG-10 chuqur burg'u qudug'i qazilib, namunalash bilan kompleks o'rganilganidan keyin ham mazkur konning qanotlaridagi uchastkalarda MS-seriyali bir nechta quduqlar qazildi.

Konni qazib olish jarayonidagi tasdiqlangan geologik ma'lumotlar bilan hujjatlashtirish natijasida ma'dan tanalari morfologiyasi va ularning litologik, magmatik, strukturaviy omillar bilan aloqadorligini fazoviy uch o'lchamli joylashuvida to'liq namoyon bo'lishi, ilgari taklif qilingan mavjud ilmiy konsepsiyalarni ba'zilarini tasdiqlasa, ba'zilarini inkor etdi. Olingan ijobiy natijalar esa ma'lum darajada geologik-geofizik bashoratlash-izlash yo'nalishlarining ilmiy rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Hozirda kunda ham tadqiqot hududining Muruntov, Kokpatas, Dovgiztov, Zarmitan, Marjonbuloq kabi yirik oltin konlarining qanotlarida yangi qidiruv chuqur burg'u quduqlarini ilmiy asoslangan holda o'tish uchun maqbul joylarni aniqlash maqsadida "Mineral resurslar instituti" Davlat muassasasi ilmiy jamoasi va "O'zbekgeologiyaqidiruv" Aksiyadorlik jamiyati geologlari tomonidan hamkorlikdagi qidiruv va razvedkalash bosqichidagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Oltin ma'danli konlarni bashoratlash-izlashning geologik-geofizik modellarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar doirasida erishilgan natijalar va yangi ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi hududidagi Tyan-Shan orogen kamarida joylashgan ma'danli foydali qazilmalarni chuqur fazoviy joylashuvi va hosil bo'lishining strukturaviy sharoitlarini aniqlash imkonini berdi. Ushbu yondashuv geofizik maydon miqyosining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan turli tartibdagi anomalialarning tabiatini izohlash va tavsiflashga yordam beradi, bu esa oltin minerallashuvining yashirin va chuqur zonalarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot uchun etalon sifatida qabul qilingan yirik oltin konlar geologik, geofizik ma'lumotlar va burg'ulash yordamida yaxshi o'rganilganligiga qaramasdan, yangi konlarni bashoratlash va qidirishning ishonchli, tizimli geofizik mezonlari mavjud emas va ma'dan qamrovchi jinslarning petrofizik tabiati yetarli darajada tadqiq etilmagan. Masalan, Muruntov, Kokpatas va Dovgiztov konlari uchun faqatgina gravitatsion maydon tabiatini talqin qilish misolida yer yoriqlari,

uzilmali strukturalarni ajratishning mezonlarini tanlashga imkon bermagan, ma'lumotlar matematik usullar bilan qayta ishlanmagan, tog' jinslarining petrofizik xususiyatlari ularning tarkibidagi ma'dandorlik darajasi bo'yicha tahlil qilinmagan, aniqlangan anomaliyalar geologik qidiruv ishlari bilan yetarli darajada tekshirilmagan yoki qidiruv quduqlarini o'tish uchun ilmiy asoslanmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Milliy universiteti va Mineral resurslar instituti DMning ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Muruntov karyeri bortoldi ustki qismining yer yoriqlari va uzilmali buzilishlarini geofizik usullar bilan aniqlash (2017 y.)"; "Yerni kosmik zondlashning raqamli materiallaridan foydalangan holda Kokpatas-Oqjetpes trendi, Derbez – Kokpatas konining g'arbiy qanoti maydonlarida oltin va boshqa ma'danlashuvni joylashuvini kosmostrukturaviy o'ziga xosligini o'rganish (2018-2020 yy.)"; Innovatsion rivojlantirish agentligining MUK-2021-48 "Metallogenik geologik sharoitlarni taqqoslash va Xitoy-O'zbek Tyan-Shan orogenik yo'lining resurs salohiyatini tahlil qilish (2021-2022 yy.)"; "Kosmogeologik tadqiqotlar asosida istiqbolli maydonlarni ajratish orqali Markaziy Qizilqum mintaqasidagi tog'-kon hududlarida ochiq va yopiq maydonlarning kosmostrukturaviy atlasini yaratish (2023-2025 yy.)", ilmiy rahbar A.B.Goipov; Davlat buyurtmasi asosida "Bokantov tog'larining markaziy va g'arbiy hududlari bo'yicha 1:50 000 miqyosli kosmogeologik tadqiqotlar (2018-2021 yy.)"; "Quljuqto'v, Shimoli-g'arbiy Bo'kantov va Molguzar tog'larida 1:50 000 miqyosdagi kompleks aerogeofizik tasvirlash" loyihasi doirasida "Molguzar va Gobduntov tog'lari hududida 1:50 000 miqyosdagi kosmogeologik tadqiqotlar (2022-2023 yy.)"; 1446-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududining tabiiy sharoitlarini o'rganish va ko'p maqsadli oqilona foydalanish uchun GAT formatidagi 1:200 000 miqyosdagi raqamli geologik xaritasini tuzish (2020-2025 yy.)"; "Hududlarning metallogenik potensialini tahlil qilish va yangi istiqbolli maydonlar ajratish (2022-2024 yy.)"; G'arbiy O'zbekistondagi etalon obyektlarni o'rganish va tajriba-uslubiy izlanishlarga asoslanib, yopiq hududlarda ma'danli foydali qazilmalarga istiqbolli maydonlarni bashoratlash maqsadida geologik qidiruv ishlarini olib borish uchun vaqtinchalik uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish (2024-2025 yy.)"; "Kosmogeologik, geofizik, geokimyoviy va boshqa tadqiqotlar majmuasi asosida Sardara botiqligining oltin va oltin-kumush ma'danlashuvi joylashuvining geologik-strukturaviy, mineralogik-geokimyoviy va tektonik xususiyatlarini o'rganish (2024-2025 yy.)"; "Kokpatas-Oqjetpes ma'dan tugunlarida oltin va boshqa foydali qazilmalarni ilg'or ixtisoslashtirilgan qidiruv" loyihasi doirasida "Kokpatas, Oqjetpes va Bo'ztov ma'dan konlarida hamda Kokpatas-Oqjetpes tog'lararo past tekisligining yopiq maydonlarida istiqbolli hududlarni aniqlash bilan oltin-sulfid minerallashuvi lokalizatsiyasining strukturaviy, mineralogik, geokimyoviy va boshqa omillarini o'rganish (2024-2025 yy.)" mavzularidagi ilmiy-amaliy loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Janubiy Tyan-Shan Qizilqum-Nurota segmentida oltin ma'danli konlarini bashoratlash-izlashning geologik-geofizik modellarini ishlab chiqishdan iborat.



### **Tadqiqotning vazifalari:**

oltin konlarini qidirish uchun geofizik materiallardan foydalanish holatini tizimli tahlil qilish;

kompleks geofizik maydonlar majmuasi bo'yicha raqamli kartografik regional geofizik asosini yaratish va tadqiqot hududlarini geologik-tektonik rayonlashtirish;

ma'dan zonalarini aniqlash va chegaralash uchun geofizik maydonlarni qayta ishlash va interpretatsiyalashning kompleks uslubiyotini ishlab chiqish;

oltin ma'danli obyektlarni statistik tahlili asosida geofizik maydonlarning turlari va ko'rsatkichlari hamda petrofizik xossalari bo'yicha tasniflash;

Qizilqum-Nurota mintaqasidagi yirik oltin konlarining uch o'lchamli geologik-geofizik modellarini ishlab chiqish;

Qizilqum-Nurota hududlari misolida oltin ma'danli bashoratli va qidiruv zonalarini aniqlash va ma'danlashuv salohiyatini baholash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Janubiy Tyan-Shanning Qizilqum-Nurota segmentidagi oltin ma'danli maydonlar olingan.

**Tadqiqotning predmeti** geofizik anomalialarning oltin ma'danlashuv zonolari bilan qonuniyat asosidagi aloqadorligini va bashoratlash mezonlarini aniqlash hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishini bajarishda etalon oltin konlarning geofizik modellarini yaratish uchun Geosoft Oasis Montaj dasturining Voxi modulida uch o'lchamli modellashtirish usullari, murakkab geofizik ma'lumotlarni qayta ishlash va interpretatsiyalash usullari, geologik komplekslar va strukturaviy elementlarning geofizik maydonlarda aks etishini baholash usullari, an'anaviy geologik-strukturaviy tahlil usullari, ma'dan tanasining geofazoviy joylashuv modelini yaratish usullari, Statistica, PyGMI va ArcGIS dasturlari bazasi asosidagi statistik va matematik tahlil usullari, ma'dan zonasi va oltin konlari bilan bog'liq geofizik anomalialarni interpretatsiyalash usullari, PyGMI va Micromine dasturlari yordamida ma'dan tanasi va ma'dan nazoratlovchi strukturalarni modellashtirish usullari, ma'danli maydonlarning mineral resurs salohiyatini baholash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

oltin ma'danli ob'ektlarning geologik-strukturaviy elementlari va geofizik maydon ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlashning kompleks statistik tahlil qilish uslubiyoti ishlab chiqilgan;

geofizik maydonlarni turli miqyoslarda transformatsiyalash va geologik-geofizik mezonlardan kompleks foydalanish asosida oltin ma'danlashuviga istiqbolli maydonlarni aniqlash uslubiyoti ishlab chiqilgan;

oltin ma'danli konlar mintaqaviy magnit anomalialar pog'onasiga hamda mahalliy gravitatsion maydonning maksimal qiymatlariga qonuniyat asosida muvofiq kelishi aniqlangan;

ilk bor Bo'kantov tog'larining geotektonik va geodinamik zonalarini bilan bog'liq bo'lgan kontrastli geoelektrik anomalialar aniqlangan;

oltin saqlovchi yangi tuzilmali zonalarga kiruvchi pirit-pirrotin, tomirli minerallashuvning rivojlanish zonasi bilan magnit maksimumlarning korrelyasion bog'liqligi aniqlangan;

ilk bor Muruntov ma'danli maydonida chuqur minerallashuv bilan bog'liq bo'lgan ma'dan tashuvchi kanallarni, geozichlik tanalarni, metasomatik o'zgargan zonalarini aks ettiruvchi uch o'lchamli geofizik modellar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

geologik-qidiruv ishlari samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiluvchi geologik va geofizik mezonlar va bashoratlash-qidiruv modellari ishlab chiqilgan;

O'zbekiston Respublikasi hududi uchun geologiya-qidiruv ishlarining hududiy geofizik asosini tashkil etuvchi raqamli geofizik maydonlarni o'z ichiga olgan 1:200 000 miqyosdagi xaritalar to'plami tuzilgan;

Kokpatos, Muruntov, Mutenboy, Dovgiztov, Zarmitan kabi yirik oltin konlarining 2D va 3D geozichlik va geomagnit modellari yaratilgan;

Janubiy Tyan-Shan orogen kamarining O'zbekiston Respublikasi hududidagi oltin ma'danlashuviga istiqbolli ochiq va yopiq maydonlarda geologiya-qidiruv ishlarini o'tqazish uchun salohiyatli uchastkalar ajratilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Janubiy Tyan-Shan orogen kamarining Qizilqum regionidan 4 ta va Nurota regionidan 3 ta oltin ma'danli maydonlarda o'tkazilgan tadqiqotlar bo'yicha jami 60 ta hisobot natijalarida belgilangan uslubiy va me'yoriy tavsiyalarga muvofiq, so'ngi 20 yil davomida olingan dala geologiya-qidiruv ishlarining fakt ma'lumotlarini jalb qilgan holda raqamlashtirilgan materiallarni ko'p modulli litsenziyalangan dasturlaridan foydalanib qayta ishlashlar amalga oshirilganligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot ishini bajarishda 1200 dan ortiq qidiruv quduqlarida geologik hujjatlashtirish ishlari bilan tasdiqlangan ma'lumotlar, katta hajmdagi geokimyoviy namunalash ma'lumotlari, so'ngi yillarda 2900 km.km maydonda o'tkazilgan raqamli geofizik tasvirlash ma'lumotlari, strukturaviy va litologik xaritalash ma'lumotlari bilan kompleks tahlil qilish asosida natijalarning ishonchliligi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati oltin konlarini bashoratlash va qidirish modellarini ishlab chiqish va rivojlantirish uchun geologik va geofizik tadqiqotlarning nazariy asoslarini yaratishga hissa qo'shadigan muhim natijalarni olishdan iborat bo'lib, ular quyidagilar asosida: Kosmanachi ma'dan qamrovchi qatlamlarini rivojlangan hududlarda oltin tarkibli kvars-kaliyli dala shpati metasomatitlarining radioaktivlik qiymati ortishi aniqlanganligi, oltin ma'danli konlarining qonuniyat asosida mintaqaviy magnit anomalialari pog'onasiga muvofiq kelishi va hamroh minerallashuv zonalarini bilan magnit maksimumlarining korelyatsion bog'liqligi, ilk bor Bo'kantov tog'lari bo'ylab geotektonik va geodinamik holati o'zgargan zonalar bilan bog'liq bo'lgan yuqori kontrastli geoelektrik anomalialar aniqlanganligi, ilk bor Muruntov ma'dan maydoni sharoitida chuqur ma'danlashuv bilan bog'liq bo'lgan chuqur ma'dan tashuvchi kanallar, geozichlik tanalar, ma'dan qamrovchi muhitning metasomatik o'zgargan zonalarini aniqlash imkonini beruvchi uch o'lchamli geofizik modellar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Python Geoscience Modeling and Interpretation (PyGMI) modifikatsiyalashtirilgan dasturini O'zbekiston oltin konlari misolida qo'llash, oltin minerallashuvi va geofizik maydonlar hamda geologik -

strukturaviy elementlar o'rtasidagi bog'liqlikni statistik tahlil qilish imkonini berganligi, ishonchli mezonlar olinganligi va oltin minerallashuvining bashoratlangan zonolari aniqlanganligi, ularning birida bashoratlash natijalari chuqur burg'ulash ma'lumotlari bilan tasdiqlanganligi, geofizik tadqiqotlarni interpretatsiyalash uchun raqamli geofizik ma'lumotlardan foydalanishga imkon beruvchi mintaqaviy miqyosdagi geofizik maydonlarning xaritalari to'plami yaratilganligi, Kokpatas, Muruntov, Dovgiztov va Zarmitan oltin ma'danli konlarida kompleks yondashuv asosida olingan natijalar geologiya-qidiruv ishlarini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlashga, shuningdek, qidiruv quduqlarini burg'ulash xarajatlarini kamaytirishga va ularni burg'ulash uchun pozitsiyalarini optimallashtirish imkonini berganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasi hududidagi Tyan-Shan orogenik kamarining ma'danli konlarni bashoratlash-izlashning geologik-geofizik modellarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

geofizik ma'lumotlarni kompleks interpretatsiyalash natijasida aniqlangan Qoravulxona-Zarmitan-Qoratosh minerallashuv zonalarida atrofidagi hududlarda yashirin ma'danlashuvga istiqbolli bashorat zonalarini Samarqand MGQE faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 24 yanvardagi 08-0342-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oltin ma'daniga mufassal geologik qidiruv ishlari samaradorligini oshirishning ilmiy asoslangan yondashuvini ta'minlashga xizmat qilgan;

Zarmitan oltin konini ishlab chiqilgan geofizik modellari Samarqand MGQE faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 24 yanvardagi 08-0342-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, yopiq hududlarda ajratilgan anomalialar bilan bog'liq bo'lgan oltin minerallashuv zonalarini aniqlash imkonini bergan;

Kokpatas ma'dan maydoni hududida oltin ma'danli zonalar yo'nalishini aniqlashga imkon beruvchi geomagnit qidiruv uslubiyo "O'zbek geologiya qidiruv" AJ faoliyatiga joriy qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 24 yanvardagi 08-0342-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, oltin ma'danlashuviga istiqbolli minerallashuv zonalarini aniqlash imkonini bergan;

Muruntov ma'danli maydonining geologik strukturalarini o'zida aks ettirgan geomagnit va geozichlik modellari "O'zbekgeologiyaqidiruv" AJ faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 24 yanvardagi 08-0342-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Muruntov konining shimoli-sharqiy qismidagi yopiq maydonlari uchun ishlab chiqilgan modellar qidiruv ishlari samaradorligini oshirish imkonini bergan;

Bo'ztov-Kokpatas-Oqjetpes ma'dan maydonlarining atrofidagi hududlarda yashirin ma'danlashuvga istiqbolli bashorat zonalarini "O'zbek geologiya qidiruv" AJ faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va

geologiya vazirligining 2025 yil 24 yanvardagi 08-0342-sonli ma'lumotnomasi). Natijalar oltin ma'daniga mufassal geologik qidiruv ishlarini rejalashtirishga ilmiy asos bo'lib xizmat qilgan;

Muruntov va Myutenbay konlarini geomagnit modellashtirish orqali aniqlangan anomaliya hosil qiluvchi oltin ma'danlashuviga istiqbolli zonalar "O'zbek geologiya qidiruv" AJ faoliyatiga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligining 2025 yil 24 yanvardagi 08-0342-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Muruntov konining shimoli-sharqiy qanotida o'tilgan chuqur burg'u quduqlarida oltin ma'danli zonalarni aniqlash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman hamda seminar treninglarda (Turkiya, Polsha, Koreya, AQSh) muhokama'dan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 29 ta ilmiy ish chop etilgan. Ulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan 11 tasi respublikada, 4 tasi xorijda chop etilgan. Konferensiya materiallari to'plamlarida 14 ta tezis chop qilingan.

**Dissertatsiya tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 5 ta bob, xulosa va 127 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 200 betni tashkil etadi.

## **DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI**

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati, maqsadi va vazifalari asoslangan. Tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari yoritilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi ochib berilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi keltirilgan.

Dissertatsiya ishining «**Geofizik materiallar asosida oltin ma'danli zonalarni aniqlash muammolarining holati va asosiy tadqiqot vazifalari**» deb nomlangan birinchi bobi O'zbekiston Respublikasi hududining geologik tuzilishiga bag'ishlangan.

Geofizik materiallar asosida oltin ma'danli zonalarni aniqlash muammosi bo'yicha zamonaviy usullar holatini tahlil qilish bugungi kunda O'zbekistonning ma'danli hududlari geofizik usullar bilan notekis o'rganilganligini qayd etish imkonini beradi. Hali geofizik tadqiqotlar bilan qamrab olinmagan yoki juda cheklangan miqdordagi olib borilgan hududlar mavjud. Shu bilan birga, ular ishlatilgan hududlarda ham ularning holati zamonaviy talablarga javob bermaydi. Mazkur holatni quyidagicha izohlash mumkin.

1. Hozirgi kungacha oltin ma'danli konlarni bashoratlash masalalarini yechishda foydalanilgan geofizik tasvirlash usullari orqali olingan materiallar olingan vaqti o'tgan asrga to'g'ri keladi. Ushbu ma'lumotlar analogli kartografik ma'lumotlar ko'rinishida bo'lib, ma'naviy jihatdan eskirgan va zamonaviy talablarga javob bermaydi.

2. Avvalgi tadqiqotlar olib borilgan vaqtlarda oltin ma'danli obyektlarining parametrlari to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi sababli ularni geofizik materiallar bilan solishtirishning imkoni bo'lmagan.

Dastlabki tadqiqotlarda oltin ma'danli obyektlarining parametrlari to'g'risida ma'lumotlar yo'qligi sababli ularni geofizik materiallar bilan solishtirishning imkoni bo'lmagan.

3. Raqamli texnologiyalar va uch o'lchovli modellashtirishdan foydalanish imkoniyati yo'q edi.

4. Ilmiy asoslarni talab qiladigan texnologiyalarning mos ravishda rivojlanishi bilan geofizik materiallarni keng jalb qilish asosida geologik muammolarni hal qilishda ulardan hali ham yetarli darajada foydalanilmayapti.

5. Geofizik materiallar asosida oltin ma'danli zonalarini aniqlash muammosini hal qilish uchun dasturiy ta'minot yordamida zamonaviy qayta ishlash usullarini moslashtirish zaruratiga asoslanadi.

Shu munosabat bilan, mavjud materiallarni qayta talqin qilish va ularni olingan yangi materiallar bilan moslashtirish va dasturiy ta'minotga asoslangan zamonaviy qayta ishlash usullarini qo'llash zarur - bu geofizik materiallar asosida oltin zonalarini aniqlash muammosiga yangi yechimlarni olish imkonini beradi.

Janubiy Tyan-Shan burmalangan tizimi, umuman olganda, janubga tomon yoy shakldagi qavariqni ifodalaydi. U g'arbda, tadqiqot hududidan tashqarida, Ural geosinklinal mintaqasiga o'tib, shimolga keskin burilib, Janubiy Tyan-Shan geosinklinal tizimining asosiy tarkibiy elementlari aniq chiziqliligi va umumiy subkenglik cho'zilishi bilan ajralib turadi. Bu stratigrafik kesimning geologik xususiyatlariga, tektonik harakatlarga, magmatizmning namoyon bo'lishiga va tuzilmalarning tabiatiga ega bo'lgan chiziqli cho'zilgan bloklarning qatorini ajratib turadigan mintaqaviy yer yoriqlar tizimining mavjudligi bilan tavsiflanadi.

Janubiy Tyan-Shan Paleozoy hosilalari - Orol dengizining janubidagi Sulton-Uvays tog'laridan Xitoy Tyan-Shanining sharqiy qismigacha bo'lgan 2000 km dan ortiq masofaga cho'zilgan bo'lib, alp tipidagi burmalar tizimi aniq kuzatiladi.

Yirik oltin konlarining geologik-strukturaviy xususiyatlarini har tomonlama o'rganish va umumlashtirish asosida Janubiy Tyan-Shanning g'arbiy qismidagi yirik oltin konlarining geologik-genetik va strukturaviy-tektonik tavsifi tuzildi (1-jadval).

Janubiy Tyan-Shanning garbiy qismidagi oltin konlarining geologik-genetik va strukturaviy-tektonik xususiyatlari  
(L.Z. Paley, L.Sh. Bulatova, G.P. Chebotarevaning materiallaridan foydalanilgan holda tuzuvchi: A.B. Goipov, 2024 y.)

№	Konlar	Metallogenik kamar	Oltin ma'danli kamar	Genetik tipi	Strukturaviy-morfologik tipi	Strukturaviy-tektonik o'rni	Ma'dan qamrovchi jinslar	Geologik-sanoat tipi
1	Kokpatas	Janubiy Bo'kantov	Bo'kantov-Oloy	Plutonogen-gidrotermal	Muvofiq va kesishuvchi maydalanish zonalari	Kokpatas antiklinalining chegarasidagi tutash kenglik va shimoli-sharqiy uzilmalar va tugunlari	C <sub>1</sub> -C <sub>2</sub> qorashox svitasining tarkibida uglerod bo'lgan vulkanogen-cho'kindi jinslari - mikro dioritlar, lamprofirilar daykalari	Oltin-sulfidli
2	Tomdibuloq			Vulkanogen-gidrotermal		Subvertikal tushuvchi subkenglik yo'nalishidagi darzlanish zonalari	Vulkanogen-cho'kindi (albitofirilar, kvars porfirilar) kukumbay svita S <sub>2</sub> lamprofirilar dolerit daykalari	Oltin-kvarsli
3	Oqjetpes (kumush)			Plutonogen-gidrotermal	Muvofiq va kesuvchi tomirlar va mineral-lashgan zonalar	Shimoli-sharqiy va kenglik yo'nalishidagi buzilishlar bilan murakkablashgan Bo'kantov antiklinali	Ohaktoshlar D <sub>2</sub> - C <sub>2</sub> Vulkanogen-cho'kindi kremiy-karbonatli jinslar C <sub>2</sub> -C <sub>3</sub>	Oltin-kumushli
4	Muruntov	Zarafshon-Turkiston	Qizilqum	Plutonogen-gidrotermal	Muvofiq va kesuvchi tomirlar, xol-xol mineral-lashuv zonalari, shtokverklar	Uzoqdagi intruziv usti zonasi. Subkenglik submuvofiqliklari bilan murakkablashgan Taskazgan antiklinalining janubiy qanoti va gumbaz qismi (65°Sh-Shq) tektonik zona	Metaqumtoshlar, slaneslar, qisman uglerodli va ohakli besapan svitasi (O-S); granitlar daykalari, plagio- va granodiorit-porfirilar, albitofirilar	Oltin-kvarsli
5	Mutenboy							
6	Besapan			Metamorfogen-gidrotermal	Muvofiq tomirlar	Subvertikal tushuvchi subkenglik yo'nalishidagi darzlanish zonalari	Ma'danli maydon uchun asosiy ma'dan qamrovchi bo'lgan "rang-barang" besapan yotqiziqlari mavjud	Oltin-kvars tipidagi, sulfidli minerallashuvi past
7	Omontoytov	Zarafshon-Oloy	Zarafshon	Plutonogen-gidrotermal	Muvofiq va kesuvchi tomirlar, bir-biriga yaqin tomirlar sistemasi	Birinchii tartibli mintaqaviy strukturalar tomonidan nazorat qilinadi - bu kuchli (> 1 km) ezilish va darzlanish zonalari	Yuqori besapan quyi svitasining S <sub>1</sub> uglerodli-terrigin jinslarida ma'danli zonalar va kolchedan konlari bilan	Oltin-sulfidli
8	Dovgiztov			Metamorfogen-gidrotermal	Nomuvofiq va kesishuvchi maydalanish zonalari	Subkenglik chuqur joylashgan yer yorig'i zonasida Dovgiztov sinklinali doirasidagi shimoli-sharqiy va g'arbiy-shimoli-g'arbiy uzilmali strukturalarning tutashish tuguni	Qumtosh, tarkibida uglerod bo'lgan slaneslar besapan svitasi fillitlari (O-C)	
9	Visokovoltniy			Plutonogen-gidrotermal	Kesish tomirlari, bir-biriga yaqin tomirlar zonalari, gnezlar	Ovminza-Beltov antiklinoriyasining janubiy qanotida yaqinlashgan Sh-Shq yer yoriqlari zonasi	Tarkibida uglerod bo'lgan qumtoshlar alevrolitlar chipor besapan argillitlari	Oltin-kumushli
10	Zarmitan	Zarafshon-Oloy	Zarafshon	Plutonogen-gidrotermal	Kesuvchi tomirlar, shtokverklar	Antiklinalning janubiy qanotida Qo'shrabot intruzivining ekzo va endokontakt zonalari	Vulkanogen-terrigin (uglerodli) jinslar S <sub>2</sub> Qo'shrabot massivining ishqoriy granitoidlari (S <sub>2</sub> )	
11	Chore			Gidrotermal	Nomuvofiq va kesishuvchi mineralashgan zonalari	Zarafshon chuqur yer yorig'i zonasidagi Poymasar-Petin antiklinali	Vulkanogen-terrigin (uglerodli) va karbonatli C <sub>2</sub> tog' jinslari, granodiorit-porfir lamprofir daykalari	Oltin-kvarsli
12	Taror			Skarn-gidrotermal	Qiya, kamdan kam tik kontakt konlari	Taror yer yoriqlari zonasidagi Taror antiklinal antiklinalidagi granitoidlar intruzivining ekzokontakti	Karbonat-terigen jinslar Pz granitoid intruzivlar va daykalar C <sub>2</sub> -P <sub>1</sub>	
13	Djilau				Kontakt ma'dan tana, muvofiq uyumlar, shtokverklar	Chinorsoy intruzivining kontakt zonasi, Chinorsoy antiklinalining yadrosi	Granitoidlar C <sub>2</sub> ohaktoshlar S-D	

Ikkinchi bob **“Bashoratlash va qidiruv masalalarini yechishda geofizik ma'lumotlarni kompleks interpretatsiyalash va qayta qilish uslubiyoti”** deb nomlanadi.

Geofizik ma'lumlardan foydalangan holda prognozlash va qidiruv ishlarining uslubiy asoslari holatini tahlil qilish asosida geofizik maydonlarning ko'rsatkichlari va geologik-geofizik omillar va oltin minerallashuvining geofizik belgilari o'rtasidagi bog'liqlikning ishonchliligini aniqlash uchun matematik va statistik tahlilni qo'llash qoniqarsiz holatda ekanligi qayd etildi. Bundan tashqari, ilgari o'tkazilgan tadqiqotlar analogli kartografik ma'lumotlarga asoslangan bo'lib, barcha mavjud konlar uchun yagona yetakchi ma'danlashuv omili qabul qilingan, o'tkazilgan tadqiqotlarda turli miqyosdagi geofizik maydon ma'lumotlarini jalb qilmasdan va ular bilan ma'danlashuv omillarining aloqadorligini baholamasdan bajarilgan. Ushbu kamchiliklarni bartaraf etish va dissertatsiya ishining vazifalarini bajarish uchun quyidagi usullarni ishlab chiqish va qo'llash zarurati paydo bo'ldi:

1. Python Geoscience Modeling and Interpretation (PyGMI) dasturiy ta'minotidan modifikatsiyalashtirilgan holda foydalanish asosida geologik muhitning geofizik ko'rsatkichlari va oltin ma'danli obyektlarining geologik va strukturaviy xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun kompleks statistik tahlil uslubiyoti.

2. Turli miqyoslardagi geofizik maydonlarni transformatsiyalash va geologik va geofizik mezonlardan kompleks foydalanishga asoslangan oltin ma'danlashuviga istiqbolli maydonlarni ajratish uslubiyoti.

Shu bilan birga, qiyosiy tahlil qilish usullari va etalon obyektlarining geofizik ko'rsatkichlari qiymatlarini turli miqyosdagi transformatsiyalar paytida olingan geofizik maydon ma'lumotlari bilan taqqoslash usullari keng qo'llanildi. Bu etalon obyektlarni geofizik ko'rsatkichlarning o'zgarishi oraliqlariga muvofiq guruhlash imkonini berdi va geologik va geofizik ko'rsatkichlarning o'zgarishi asosida oltin konlarini tasniflash mezonlari aniqlandi.

Tadqiqotni o'tkazishda geokimyoviy maydonlarni sinovdan o'tkazish ma'lumotlaridan, yopiq hududlarda burg'ulash natijalari va geologik va strukturaviy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Geofizik maydon ma'lumotlarini qayta ishlash va talqin qilish va ularning geologik ma'lumotbardorligini oshirishning zamonaviy usullari qo'llanilgan, ular quyidagilar bilan tavsiflanadi:

a) tadqiqot turli miqyosda o'tkazildi, bu “umumiy”dan “xususiy”ga bosqichma-bosqich o'tish imkonini berdi;

b) ma'dandor zonalar geologiyasiga oid yangi va mufassal ma'lumlardan foydalanildi, bu esa qidiruv geofizik xususiyatlarini aniqlash imkonini berdi;


d) yechilayotgan bashoratlash masalalariga qarab yuqori texnologiyali dasturiy ta'minot vositalari yordamida geofizik maydonlarni transformatsiyalash usullari keng qo'llaniladi;

Geofizik (magnitometrik, elektrometrik va geopotensial) maydonlarni qayta ishlash va interpretatsiyalashning zamonaviy usullarini qo'llash natijasida istiqbolli oltin ma'danli obyektlari ajratildi va chegaralari belgilandi. Ularning tavsifi dissertatsiyaning bo'limlarida keng yoritilgan.



Uchinchi bob “**Tadqiqot hududi geofizik maydonlarini kompleksiga muvofiq rayonlashtirish va regional geofizik asoslari**” deb nomlanadi.

O‘zbekiston Respublikasining butun hududi bo‘yicha ( $56^{\circ} 00'$  dan  $73^{\circ} 20'$  sharqiy uzoqlikkacha va janubdan  $37^{\circ} 10'$  dan  $45^{\circ} 40'$  shimoliy kenglikkacha bo‘lgan geografik koordinatalar doirasida) anomal magnit maydonning raqamli xaritasi yaratildi. Magnitorazvedka ma’lumotlarini zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida qayta ishlash ArcGIS, Geosoft - Oasis-Montaj axborot bazasida amalga oshirildi. 1959 yildan 2016 yilgacha o‘tkazilgan o‘rta va kichik miqyosdagi hududiy aerogeofizik magnit tasvirlash ma’lumotlari esa yig‘ma xaritalarni yaratish uchun kartografik asos bo‘ldi.



1-rasm. O‘zbekiston Respublikasining 1:200 000 miqyosdagi magnit anomalialarini raqamli xaritasi  
(Tuzuvchilar: Goipov A.B., Turg‘unaliev M.X., 2024 y.)

GRACE sun‘iy yo‘ldoshidan olingan sun‘iy yo‘ldosh gravimetrik tasvirlash ma’lumotlaridan foydalanib, “Geosoft – Oasis-Montaj” dasturida O‘zbekiston Respublikasi va unga tutash hududlar uchun gravitatsion anomalialari: ochiq havodagi og‘irlik kuchi anomalialari, izostatik anomalialar va Buge anomalialari xaritalari tuzildi. O‘zbekiston Respublikasi hududining gravitatsion maydonini xususiyatlari keltirilgan.

1:200 000 miqyosdagi rayonlashtirish uchun biz  $\Delta T_a$  va  $\Delta g$  anomal geofizik maydonlarni birgalikda tahlil qilishdan foydalanildi, ular bir-biri bilan juda yaxshi solishtirish mumkinligi aniqlandi. Geofizik maydonlarni rayonlashtirish birliklari mintaqalar va zonalaridir (2-jadval).



## O'zbekiston hududining geofizik maydonlarini rayonlashtirish

№	Regionlar	Zonalar
1	Orol-Ustyurt	Shimoliy Ustyurt; Markaziy Ustyurt; Sharqiy Ustyurt.
2	Qurama-Farg'ona	O'rta Sirdaryo; G'arbiy Chotqol; Qurama
3	Janubi-g'arbiy Tyan-Shan	Quldjuqtov-Qoratepa; Buxoro
4	Qizilqum-Janubiy Tyan-Shan	Tomditov-Nurota; Bo'kantov-Qorachatir
5	O'rta Tyan-Shan	Orolbo'yi; Shimoliy Qizilqum; Sharqiy Qizilqum.

O'zbekiston hududi bo'ylab turli geologik tuzilishga ega mintaqalarga xos bo'lgan, poydevori chuqur botiqlik tuzilishiga ega bo'lgan, nisbatan sayoz joylashgan va nihoyat, ochilmali va yarim ochilmali poydevorga ega bo'lgan hududlar mavjud bo'lib, ular tabiiy ravishda fizik maydonlar tuzilishida, jumladan, gravitatsion maydon tuzilishida ham namoyon bo'lgan.

Geofizik maydonlarni rayonlashtirishning asosiy tamoyillari va uning geologik talqini A.A.Borisov, Yu.N.Godin E.E.Fotiadi, M.V.Nevolina, V.V.Fedinskiy, I.A.Fuzaylov, B.B.Tal-Virskiy, I.G.Kremnev, V.I.Goldshmidt va boshqalarning tadqiqot ishlarida yoritilgan. Tadqiqot hududi uchun rayonlashtirish sxemalarining ko'pchiligi juda kichik miqyosda turli belgilar bo'yicha yoki cheklangan hududlar uchun tuzilgan.

Geoaxborot tizimlari formatida tuzilgan geofizik maydon xaritalari 1:200 000 miqyosdagi raqamli geologik asosini yaratishda foydalaniladi va statistik tahlil qilishda foydalanildi.

Ushbu materiallarni tahlil qilish asosida geofizik anomaliyalarning namoyon bo'lish qonuniyatlari turlicha bo'lgan geobloklar aniqlandi va ularning xarakterli chegaralari aniqlandi. Shu bilan birga, bu mintaqaning geologik tuzilishini o'rganishda hisobga olingan asosiy yer yoriqlar zonalarini (yoki ma'lum bir yo'nalishdagi gravilineamentlar) aniqlash imkonini berdi. Gravitatsiya anomaliyalarini talqin qilish natijalari asosida o'rganilayotgan hududdagi yer qobig'ining qatlamli sferasidagi tog' jinslarining tuzilishi va tarkibi to'g'risida xulosalar chiqarilib, yoriqlar va burmalanish joylari aniqlandi.

Qayd etilishicha, geodinamik jihatdan o'rganilayotgan hudud magnit va gravitatsion maydonlarining xususiyatlarini belgilovchi, geofizik maydon strukturasining zonalligida namoyon bo'ladigan o'ziga xos tektonomagmatik joylashuvi bilan tavsiflanadi.

Geopotensial maydon mahalliy darajada qidiruv geofizik belgilarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Muruntov maydoni misolida musbat

magnit va gravitatsion anomaliyalarining ichki qismlarida mahalliy magnit va gravitatsion minimallari bilan xususiyatlanuvchi gravimagnit maydonlarning murakkab konfiguratsiyasi aniqlangan. Maydon yuqori gravitatsion Buge anomaliyasi bilan tavsiflanadi, bu yerda yuqori musbat gravitatsion va magnit anomaliya manfiyga o'zgaradi.

O'zbekiston Respublikasi hududi, jumladan, qo'shni hududlarni qamrab oluvchi 88 ta nomenklatura varaqlarini o'z ichiga olgan 1:200 000 miqyosdagi anomal magnit maydonining jamlanma elektron xaritasi tuzildi. Ushbu xarita regional asosning muhim elementi hisoblanib, keyingi ishlar uchun batafsil geofizik asosni olishdan iborat.

Shunday qilib, keyingi strukturaviy va tektonik tadqiqotlar uchun asos sifatida zarur bo'lgan, o'rganilayotgan hududlarning geologik rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash, yer qobig'ining strukturalarini modellash va ularning foydali qazilmalar konsentratsiyasi bilan bog'liqligini aniqlash uchun zarur bo'lgan geofizik xaritalar majmuasi olingan.

To'rtinchi bob **“Oltin ma'danli obyektlarni geofizik maydon turlari va ko'rsatchilari bo'yicha tasniflanish va qobiq minerallasuv zonalarini aniqlash”** deb nomlanadi.

Geologik omillar toifalari va geofizik xususiyatlar bo'yicha ma'danlashuv ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni statistik o'rganish natijalariga ko'ra, ma'dan nazoratlovchi omillar va oltin ma'danlashuvini bashoratlashning muhim magnit va gravitatsion belgilari jadvallari tuzildi. Tuzilgan jadvallarda ma'lum turdagi ma'danlashuv uchun har bir ma'dan nazoratlovchi omil yoki geofizik xususiyat uchun ishonchli oraliqdagi foydali komponentlar tarkibiga (yoki aniqrog'i, foydali komponentning minimal sanoat miqdoriga) mos keladigan ma'danlashuv omillarning “qulay” bo'lgan toifalarini ko'rsatdi. Ilgari faqatgina ma'lum turdagi ma'danlashuv uchun dastlabki ma'dan nazorat qiluvchi omillar tuzilgan 1:200 000 miqyosdagi geologik asosda ma'danni nazorat qiluvchi omillar guruhlarining qulay toifalari jadvallardan chiqarildi va shu bilan ularning bir hil geologik holatiga erishildi. Bunday operatsiyalar tahlilga jalb qilingan barcha turdagi geofizik maydonlar bo'yicha amalga oshirildi. Shu sababli, bir xil geologik pozitsiyalar ikkita, uchta va boshqalarning kombinatsiyasi bilan, sakkiztagacha qulay toifadagi omillar guruhlari bilan shakllantirildi.

Geofizik maydonlarni ana shunday tahlil qilish va ularning ma'dan namoyonlari bilan bog'liqligini statistik baholash natijasida oltin m'adanli ob'yektlarining tasnifli xususiyatlari aniqlandi.

Natijada shunday mezon namoyon bo'ldiki, ma'lum turdagi konlar va ma'dan namoyonlarining joylashuvi geofizik maydon intensivligining ma'lum bir oraliqlarida ustunlik qiladi. Bu xususiyatlar geofizik maydonning har bir turi uchun alohida ko'rib chiqildi.

Magnit maydon anomaliyalarini tahlil qilishda asosiy ko'rsatkich-belgi sifatida musbat anomaliyalar o'qlari ishlatildi. Ular 2 guruhga ajratildi: a) asos tarkibli magmatik hosilalar bilan bog'liq bo'lgan magnit anomaliyalar; b) granitoid intruzivlari bilan bog'liq bo'lgan magnit anomaliyalar.

Birinchi guruh anomalionalari ma'dan konlari bo'ylab (chegaralarida) joylashgan. Anomalionalar ko'pincha gravitatsion minimallari bilan birga keladi va granitoid intruzivlarining apikal qismlari, shuningdek kontakt-metasomatik va metamorfik hosilalar bilan bog'liq.

Magnit maydonning miqdoriy tahlili Kokpatas ma'dan maydoni hududlarida umumiy vektorning pasaygan qiymatlari mintaqasiga aniq chegaralanganligi aniqlandi. Ilgari o'tkazilgan geologiya qidiruv ishlari natijasida aniqlangan barcha ma'danli minerallashuv zonalari fazoviy jihatdan shu hudud bo'ylab joylashgan va uning tarqalishini to'liq nazoratlaydi, shuning uchun magnit maydonining regional tashkil qiluvchisining manfiy qiymatlari Kokpatas ma'dan maydoni chegarasi sifatida qabul qilingan.

Gravimetrik ma'lumotlarni tahlil qilishda granitoid intruzivlarning yer yuzasiga gorizontaal proektsiyasining o'rta chizig'iga gravitatsion minimal chizig'ining o'rta chiziqlari muvofiq kelishi asos bo'ldi. Qoida tariqasida, tomezozoy poydevori yuzasida ochilgan barcha granitoid intruzivlar gravitatsion minimal konturlari ichida yotadi.

O'rtacha intensivlik, differentsiallanish darajasi va gradient zonalari mavjudligi kabi parametrlarning axborot mazmunini hisobga olgan holda geofizik maydonlar xususiyatlarini uslubiy tahlil qilish asosida hududning alohida ma'danlashuv maydonlarini geofizik maydonlarning turlari va ko'rsatkichlari bo'yicha rayonlashtirish amalga oshirildi.

Umuman olganda, ushbu tadqiqotlar natijasida oltin ma'danli obyektlarning geofizik maydonlarning turlari va ko'rsatkichlari bo'yicha tasniflash xususiyatlari aniqlandi, bu esa og'irlik kuchi va magnit maydonlarining o'zaro bog'liq qiymatlari asosida ma'danlashuvning yetakchi turini aniqlash imkonini beradi.

Bundan tashqari, mazkur bobda magnitorazvedka ma'lumotlarini talqin qilish asosida magnitlangan manbalarning hisoblangan chekka pozitsiyalariga (Tomditov hududida) manba o'lchamlari va ular orasidagi interferensiya ta'sirini baholash asosida qobiq flyuid minerallashuv zonalarini aniqlash natijalari tavsifi keltirilgan. Olingan kartografik ma'lumotlarning tavsifi HGM (Gorizontaal Gradient Magnitude) aeromagnit ma'lumotlarini qayta ishlash usullari asosida berilgan bo'lib, u gorizontaal tekislikdagi magnit intensivligidagi o'zgarishlarni vizualizatsiya qilish va magnit anomalionalarning chegaralari va konturlarini aniqlash, shuningdek, minerallarning chegaralari va konturlarini aniqlash imkonini beradi.

